

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI  
DSc. 39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
AKADEMIYASI**

**ALIMOV G‘AYBULLA ALIMOVICH**

**FAVQULODDA HOLATLARDAGI INSON HUQUQLARINI  
TA‘MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI:  
XALQARO VA MILLIY TAJRIBA**

12.00.13. – Inson huquqlari

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Contents of the abstract of the doctoral dissertation (DSc)**  
**Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)**

**Alimov G‘aybulla Alimovich**

Favqulodda holatlarda inson huquqlarini ta‘minlashning huquqiy asoslari:  
xalqaro va milliy tajriba ..... 3

**Alimov Gaybulla Alimovich**

The legal basis for ensuring human rights in case of emergency:  
international and national experience ..... 25

**Алимов Гайбулла Алимович**

Правовые основы обеспечения прав человека в условиях чрезвычайных  
ситуаций: международный и национальный опыт.....47

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works  
Список опубликованных работ.....52

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
AKADEMIYASI**

**ALIMOV G‘AYBULLA ALIMOVICH**

**FAVQULODDA HOLATLARDAGI INSON HUQUQLARINI  
TA‘MINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI:  
XALQARO VA MILLIY TAJRIBA**

12.00.13. – Inson huquqlari

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/Yu262 - raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.nhrc.uz](http://www.nhrc.uz)) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy konsultant:**

**Tillabayev Mirzatillo Alisherovich,**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**G‘afurov Asqarjon Boyisovich,**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Turg‘unov Murodjon Tursunbayevich,**  
yuridik fanlar doktori, dotsent

**Toshev Boboqul Norqobilovich,**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya  
vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni  
qayta tayyorlash va malakasini  
oshirish instituti**

Dissertatsiya himoyasi Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 13-iyun kuni soat 15.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100029, Toshkent sh., Islom Karimov ko‘chasi, 15-uy, tel. +998 71 239 40 23, e-mail: [info@nhrc.uz](mailto:info@nhrc.uz)).

Dissertatsiya bilan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (8-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 15-uy, tel. +998 71 239 40 23).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_, \_\_\_.- raqamli reyestr bayonnomasi).

**I.T. Turg‘unov,**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi v.b., yuridik fanlar doktori, dotsent

**O‘.S. Ochilov,**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, yuridik fanlar doktori, dotsent

**A.A. Tulaganov,**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik  
fanlar doktori, professor

## KIRISH (Doktorlik dissertatsiyasi (DSc) annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda hozirgi davrda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash hamda ularni amalga oshirish davrimizning eng dolzarb va murakkab muammolaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari nafaqat asosiy huquq va erkinliklarning qadr-qimmati va daxlsizligini anglashga olib keldi, balki ularni turli xil noqonuniy tajovuzlar, xavflar, tabiiy ofatlardan himoya qilishning o'ta dolzarb masalasini ham kun tartibiga qo'yimoqda. Jahon meteorologiya tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra tabiiy ofatlar soni 5 yil davomida 50 barobar oshgan. Xususan, 1970-yildan hozirgacha bo'lgan davrda 11 mingdan ziyod turli ofatlar yuz berishi natijasida 2 milliarddan ortiq o'lim holatlari kuzatilgan va 3,64 trillion AQSh dollari miqdorida iqtisodiy zarar yetkazilgan. Ayni paytda favqulodda holatlarning oldini olish va uning oqibatlarini yumshatish tizimi takomillashtirilishi natijasida o'lim sonini deyarli 3 baravar kamaytirishga erishildi<sup>1</sup>. Shu bilan birga, ko'plab davlatlarning rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, inson huquqlari va erkinliklarini so'zsiz mutloqlashtirish ba'zan tabiiy holatga va davlat rivojlanishining qonuniy manfaatlari talablariga javob bermaydi, shaxsning erkinligini ma'lum chegaralar ichida amalga oshirishni va boshqa shaxslarga o'z huquqlaridan foydalanish imkoniyatini beradi.

Bugungi notinch, xavf-xatarli dunyoda inson huquqlari konsepsiyasini tadqiqot qilish, uning turli vaziyatlarda (favqulodda yoki urush holatlarida) ta'minlash, ayrim toifadagi huquq va erkinliklarni cheklash masalalarini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Inson huquqlari bo'yicha ayrim cheklovlarni qo'llash Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktlar kabi bir qator muhim xalqaro huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Xalqaro hamjamiyat nafaqat ma'lum huquqlar majmuiga, balki davlat hokimiyati organlari tomonidan ko'rilgan favqulodda choralarni nazorat qilish huquqiga ham ega. Bu inson huquqlari bo'yicha xalqaro kafolatlarning samarali ishlashi va ularning himoyasini ta'minlash zarurati bilan bog'liq.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 87-maqsadi “Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirish” deya nomlanib, ushbu maqsaddan kelib chiqadigan inson huquq va erkinliklarini cheklashda suiiste'mol qilish holatlariga yo'l qo'ymaslik tamoyili muhim ilmiy-nazariy omil sifatida alohida dolzarblik kasb etadi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek, “So‘nggi yillarda dunyoning turli mintaqalarida qurolli to‘qnashuvlar, ekologik va texnogen fojialar, iqtisodiy inqirozlar, “savdo urushlari”, terrorizm va ekstremizm tahdidlari tobora kuchayib bormoqda. Bunday o‘ta murakkab sharoitda jahonda tinchlikni saqlash, ijtimoiy taraqqiyot va adolatni ta'minlashda parlamentlar ishtiroki va ta'sirini oshirishni zamonning o'zi talab etmoqda”<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> <https://wmo.int/ru/media/news/za-poslednie-50-letuvelichilos-chislo-svyazannykh-s-pogodoy-bedstviy-oni-prichinyayut-bolshe>.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasidagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/8034>.

Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun (2021), “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun (2022), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi<sup>1</sup> va boshqa qonun hujjatlarida aks ettirilgan inson huquqlarini favqulodda holatlarda ta‘minlash masalalarini muayyan darajada amalga oshirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Favqulodda holatlarda inson huquqlarini ta‘minlashning muhim masalalari, uni rivojlantirish va shakllantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar jahon davlatlaridagi nufuzli ilmiy muassasalar va jamoatchilik tashkilotlari, jumladan, AQShning Jorjtaun universiteti (Georgetown University), Merilend universiteti (University Maryland), Florida texnologiya instituti (Florida Institute of Technology), Favqulodda vaziyatlarni boshqarish instituti (Emergency Management institute), Stenford universitetining Xalqaro xavfsizlik va hamkorlik markazi (Stanford University – Center for International Security and Cooperation), Garvard universitetining Belfer fan va xalqaro aloqalar markazi (Harvard University – Belfer Center for Science and International Affairs) kabi oliy ta‘lim muassasalari, Kanadaning Britaniya Kolumbiyasi universiteti (University of British Columbia), Germaniyaning Bavariya yong‘in boshqarmasi (Bayerische Feuerwehrschiue (BFS)) universiteti, Daniyaning Inson huquqlari bo‘yicha instituti, Xitoyning yetakchi oliy ta‘lim muassasalari konsorsiumi – Xitoy kampus tarmog‘i (China Campus Network) va boshqa muassasalar tomonidan amalga oshirilgan.

Masalan, AQShning Jorjtaun universitetida favqulodda holatlarda terrorizmga qarshi kurash, milliy xavfsizlik sharoitida inson huquqlarini himoya qilish masalalari tadqiq etilgan bo‘lsa, Garvard universitetining Belfer fan va xalqaro aloqalar markazida xalqaro munosabatlar, urush va tinchlik sharoitida inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan strategik ilmiy tahlillar olib borilgan. AQShning Kolorado universiteti Boulder tabiiy xavflar markazida (Universty of Colorado Boulder-Natural Hazards Center) favqulodda vaziyatlarda, jumladan, zilzila, toshqin, dovul kabi tabiiy ofatlar sharoitida inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

MDH mamlakatlaridan Rossiyaning Fuqarolik mudofaasi akademiyasi, Sankt-Peterburg davlat yong‘in xavfsizligi universiteti, Qozog‘istonning Fuqarolik

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6012-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-4872355>

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

mudofaasi akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi kabi yetakchi ilmiy markazlar hamda oliy ta’lim muassasalarida favqulodda holatlarda inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi, ayrim huquq va erkinliklarni cheklashning xususiyatlari va mezonlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Shuningdek, favqulodda holatlarda inson huquqlarini ta’minlash jarayonida, cheklov qo‘llovchi davlat organlari o‘z vakolatlarini suiiste’mol qilishlarining oldini olish, har qanday vaziyatda ham cheklanishi mumkin bo‘lmagan huquq va erkinliklar ro‘yxatini kengaytirish bo‘yicha nufuzli xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi, BMTning Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi, Irtiqy kamsitishlarga barham berish qo‘mitasi, Inson huquqlari qo‘mitasi, Yevropa Kengashi, Yevropa Ittifoqi, YXHT kabi xalqaro tashkilotlar faoliyatini keltirib o‘tish mumkin. Inson huquqlari bo‘yicha Amerika va Yevropa sudlari tomonidan favqulodda holatlar sharoitida inson huquq va erkinliklarini suiiste’mol qilish holatlari bo‘yicha kelib tushgan shikoyatlarni ko‘rib chiqishga oid sud amaliyoti tahlil qilinib, ular yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilingan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan xorijiy ta’lim muassasalari va xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida, ma’ruzalarida va tadqiqot ishlarida favqulodda holatlarda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash jarayonida ayrim huquqlarni cheklashning nazariy va amaliy muammolari tahlil qilingan va tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda favqulodda holatlarda inson huquq va erkinliklarini cheklash masalasi bo‘yicha alohida tadqiqotlar olib borilmagan bo‘lsa-da, inson huquqlarini cheklashning u yoki bu jihatlari akademik A.X. Saidov, olimlar G‘.A. Abdumajidov, M.X. Rustambayev, A.B. G‘afurov, M.A. Tillabaev, A.A. To‘laganov, I.T. Turg‘unov, M.T. Turg‘unov, B.N. Toshev, G.Y. Yuldasheva, A.R. Muminov, A.A. Matchonov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida ko‘rsatib o‘tilgan<sup>1</sup>.

O‘zbekistonda favqulodda holatlar davrida fuqaro muhofazasining huquqiy va tashkiliy masalalarini olimlar – S. Xusanova, N. Nazarova hamda A. Tursunovlar milliy darajada tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarida inson huquq va erkinliklarini cheklashning konstitutsiyaviy va huquqiy asoslari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchi olimlar T. Xabriyeva, A. Abashidze, A. Kovler, B. Tuzmuhamedov, Y. Shelegov, A. Yusufov, M. Txarkaxo, O. Vinogradov, A. Kropacheva, O. Omarov, D. Ikramov, Y. Kazimirskaya va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Favqulodda holatlarda inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning xalqaro huquqiy jihatlari bir qator xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida, xususan, R. Bernhardt, B. Vizer, F. Iakobutsi, A. Kariola, A. Shayo, K. Ekshtayn, A. Lopes-Pina, R. Arnold, A. fon Arnold, K. Mayner-Brokman, T. Mouns, P. Lerne, G. Ress, M. Saks, K. Xesse, V. Xofling, B. Shlink, F.E. Shnapp, X. Shtark, K. Shtern, M.X. Yakobe va boshqalarning ilmiy asarlarida yoritilgan bo‘lib, ularda inson

---

<sup>1</sup> Mazkur va boshqa olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

huquqlarini cheklash muammosi va ularni qabul qilish mezonlari batafsil tahlil qilinadi.

Shu bilan birga, tanlangan mavzu bo'yicha nazariy-huquqiy muammolar favqulodda holatlarda davlat boshqaruvi tizimidagi islohotlar, milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti, xalqaro huquq me'yorlari hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini inobatga olgan holda inson huquqlarini cheklash nuqtayi nazardan alohida monografik tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** – O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga asosan favqulodda holatlarda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash masalalarini tahlil qilish, shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasining bu yo'nalishdagi qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

O'zbekiston Respublikasi, xalqaro-huquqiy hujjatlar va xorijiy davlatlar qonunchiligiga muvofiq inson huquq va erkinliklarini favqulodda holatlar sharoitida cheklashning maqsadlari va asoslarini tashkil etuvchi konseptual tushunchaning mazmunini ochib berish;

O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda qonuniy cheklashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tahlil qilish;

maxsus huquqiy maqomga ega bo'lgan shaxslar, xususan, ichki ishlar, milliy gvardiya, prokuratura va sud organlari tomonidan alohida huquqiy rejim sharoitida inson huquq va erkinliklariga cheklovlar qo'llashning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar talablari asosida favqulodda holatlar sharoitida inson huquqlarini ta'minlash institutining tushunchasi, mexanizmi va xususiyatlarini chuqur tahlil qilish;

terrorizm va ekstremizm xavfi mavjud bo'lgan real vaziyatlarda joriy etilgan alohida huquqiy rejim sharoitida inson huquq va erkinliklarini cheklashning xususiyatlarini tahlil qilish va bu boradagi xorij tajribasini o'rganish;

inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar va xorijiy mamlakatlar tajribasida favqulodda holat joriy etish tartibi, turlari va qo'llash asoslarini tahlil qilish orqali "maxsus huquqiy rejim", "tan omaslik", "toraytirish", "to'xtatib turish", "cheklash", "urush holati yoki qurolli to'qnashuv", "favqulodda holat", "favqulodda holatlarda jamoat tartibini saqlash", "huquqdan mahrum qilish", "qamal holati" huquqiy tushunchalariga ta'rif berish;

har qanday sharoitda chekinishga yo'l qo'yilmaydigan inson huquq va erkinliklariga tegishli BMT shartnomalari va mintaqaviy (Amerika, Yevropa, Afrika) shartnomalar qoidalarini tahlil qilish orqali O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida insonning huquq va majburiyatlari kafolatlarini hamda o'ziga xos jihatlari o'rganish;

favqulodda holat huquqiy rejimini joriy qilish bo'yicha O'zbekiston amaliyotini tahlil qilish orqali, mamlakatimiz hududida favqulodda va harbiy holatni joriy etishning huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Koronavirus (COVID-19) pandemiyasi sharoitida inson huquqlarini cheklashning ayrim xususiyatlarini o'rganish;

xalqaro-huquqiy shartnomalar, milliy va xorijiy normativ hujjatlariga muvofiq maxsus huquqiy rejimning elementi sifatida inson huquq va erkinliklariga oid qonuniy cheklovlarning ijtimoiy va huquqiy mohiyatini ochib berish;

O'zbekiston Respublikasida favqulodda holatlar sharoitida inson huquq va erkinliklarini cheklash sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** – O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlarning huquqiy tizimlarida favqulodda holat sharoitida inson huquq va erkinliklarni ta'minlash, shuningdek, huquqiy cheklovlarni qo'llash va joriy etish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar tizimi.

**Tadqiqot predmeti** – favqulodda holatlar davrida inson huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq masalalarni tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar, bunday sharoitda xalqaro tashkilotlarning faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar qoninchiligida inson huquq va erkinliklarini cheklashning huquqiy asoslarini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari.

**Tadqiqot usullari.** Favqulodda vaziyatda inson huquqlarini ta'minlashning xalqaro-huquqiy mexanizmini tahlil qilish nuqtayi nazaridan tizimli, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-huquqiy, ijtimoiy so'rov, empirik material va statistik ma'lumotlar tahlili usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xorijiy va milliy qonunchilik, ilmiy doktrina tahlili asosida “maxsus huquqiy rejim”, “tan omaslik”, “toraytirish”, “to'xtatib turish”, “cheklash”, “urush holati yoki qurolli to'qnashuv”, “favqulodda holat”, “favqulodda holatlarda jamoat tartibini saqlash”, “huquqdan mahrum qilish”, “qamal holati” tushunchalariga nisbatan zamonaviy yondashuvdagi mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasining “Favqulodda holat to'g'risida”gi Konstitutsiyaviy qonunida berilgan “favqulodda holat” tushunchasining takomillashtirilgan tahlili taklif etilgan;

insonning huquqlari konstitutsiyaviy tuzum, aholining sog'lig'i, ijtimoiy axloq, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkinligi xalqaro-huquqiy jihatdan asoslantirilgan;

O'zbekiston Respublikasining “Favqulodda holat to'g'risida”gi Konstitutsiyaviy qonunining 12-moddasi 4 va 7-qismlariga favqulodda holatlarda yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari, namoyishlar o'tkazilishini taqiqlash yoki cheklash hamda o'ta muhim va toifalangan obyektlarning qo'riqlanishini kuchaytirishga oid takliflar asoslantirilgan;

Vazirlar Mahkamasining favqulodda vaziyatlar yuz bergan hududlarga odamlarni va transport vositalarining kirib-chiqishini vaqtincha cheklash bilan bog‘liq vakolatlari asoslantirilgan;

favqulodda holat joriy etilgan davrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining tarqatib yuborilishini taqiqlovchi qoidalari bilan qonunchilikni to‘ldirish taklif etilgan;

O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlarini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi favqulodda vaziyatlarda patentlar bilan muhofaza qilinadigan sanoat mulki obyektlaridan tarkib topgan vositalarni tabiiy ofatlar, halokatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda holatlarda patent natijalaridan foydalangach, muallifini qisqa muddatda xabardor qilib, mutanosib miqdorda unga tovon to‘lash masalasi asoslantirildi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat mudofaasi va xavfsizligini ta‘minlash, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqarolarning hayoti va sog‘ligini muhofaza qilish bilan bog‘liq oxirgi zaruriyat yuzaga kelgan vaziyatlarda, patent egasining mulkidan uning roziligisiz foydalanib, bu haqda uni xabardor qilib, mutanosib miqdorda unga tovon to‘lash shartlari asoslantirilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash jarayonida ayrim huquqlarni cheklash bilan bog‘liq favqulodda holat huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan amaliy takliflar asoslantirilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi favqulodda holatlarda inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash maqsadida ayrim huquq va erkinliklarni cheklash bilan bog‘liq normalar xalqaro-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan standartlarga moslashtirilishi amaliy zarurat ekanligi asoslantirilgan;

O‘zbekiston Respublikasining favqulodda holatlar bilan bog‘liq mavjud qonun hujjatlariga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan;

favqulodda holatlarda inson huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq milliy va xorijiy tajribaning tahlili, qonun hujjatlardagi tushunchalarning aniq va ilmiy ta‘riflanishi hamda Konstitutsiyaviy va qonuniy mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha berilgan takliflar asoslab berilgan;

ilmiy tahlil natijasida ishlab chiqilgan favqulodda holatlarga oid mualliflik ta‘riflari va asosiy tushunchalarni milliy qonunchilikka tatbiq etishning aniq mezonlari taklif etilgan;

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi va sohaga oid qonunlarga kiritilishi taklif etilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar favqulodda holatda inson huquq va erkinliklarini samarali va qonuniy himoya qilishi asoslantirilgan;

xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida berilgan takliflar O‘zbekiston Respublikasining milliy huquqiy tizimi xalqaro standartlar talablariga moslashuvini ta‘minlanishi asoslab berilgan;

favqulodda holatlarda huquqni qo‘llash amaliyotida yuzaga keladigan huquqiy bo‘shliqlar va muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladigan aniq takliflar ishlab chiqilgan;

favqulodda holatlarda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga oid qonunchilikni takomillashtirish va inson huquqlarini himoya qilish sohalaridagi yangi yechim va mexanizmlarni joriy etish imkonini berishi asoslantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Favqulodda holatga oid tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, ilg'or xorijiy tajribalar, huquqni qo'llash amaliyoti, rasmiy manbalardan olingan ilmiy-nazariy qarashlar va metodologik yondashuvlar, harbiy va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari orasida o'tkazilgan so'rovnomalar hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali o'tkazilgan so'rovlar (*bash mingdan ortiq empirik materiallar*), shuningdek, rasmiy statistik ma'lumotlar tahlillariga asoslangan bo'lib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif hamda tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya asosiy qoidalarining ilmiy-amaliy ahamiyati shundan iboratki, ular favqulodda holatlarda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy asosini mustahkamlaydi, alohida huquqiy rejim joriy qilingan hududlarda xalqaro gumanitar huquqni qo'llashni yanada rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi.

Tadqiqot ishida keltirilgan takliflardan ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Davlat va huquq asoslari", "Inson huquqlari", "Konstitutsiyaviy huquq", "Jinoyat huquqi", "Ma'muriy huquq" kabi bir qator huquqiy fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin, shuningdek, "Xorijiy davlatlarning konstitutsiyaviy huquqi", "Davlat va huquq nazariyasi", "Inson huquqlari" fani va o'rganilayotgan mavzu bo'yicha boshqa ixtisoslashtirilgan kurslar va o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

favqulodda holatlar sharoitida inson huquq va erkinliklarini cheklash bo'yicha taqdim etilgan takliflar, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 21-moddasining: "Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin" degan tahririda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2023-yil 26-iyuldagi 19-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning qabul qilinishi yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyada faqat favqulodda holatlar sharoitidagina inson huquqlarini konstitutsiyaviy tizimni, aholi sog'lig'ini hamda jamoat xavfsizligini va jamoat tartibini saqlash maqsadlarida qisman cheklash mumkinligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy qoidada mustahkamlandi;

O'zbekiston Respublikasining "Favqulodda holat to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning 12-moddasi 4 va 7-qismlariga favqulodda holatlarda yig'ilishlar, mitinglar, ko'cha yurishlari, namoyishlar o'tkazishni taqiqlash yoki cheklash hamda o'ta muhim va toifalangan obyektlarning qo'riqlanishini kuchaytirishga oid takliflar asoslantirilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi*

*Senatining 2023-yil 26-iyuldagi 20-son dalolatnomasi*). Ushbu takliflarning qabul qilinishi mazkur qonunni qo'llash samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuning 8-moddasiga Vazirlar Mahkamasining favqulodda vaziyatlarda shunday vaziyatlar yuz bergan hududlarga odamlarni va transport vositalarining kirib-chiqishini vaqtincha cheklash bilan bog'liq vakolatlarini kengaytirish haqidagi taklif asoslantirilib, uning qonun chiqaruvchi tomonidan inobatga olinishi favqulodda vaziyatlarda fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mulki daxlsizligini ta'minlashga xizmat qilgan (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2023-yil 26-iyuldagi 21-son dalolatnomasi*);

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga, xususan, favqulodda holat joriy etilgan davrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining tarqatib yuborilishini taqiqlovchi yangi normalar bilan to'ldirilganligi to'g'risidagi o'zgartirishlar hamda Vazirlar Mahkamasi davlat mudofaasi va xavfsizligini ta'minlash, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish bilan bog'liq zaruriyat yuzaga kelgan vaziyatlarda, patent egasining mulkidan, uning roziligisiz foydalanib, bu haqda uni xabardor qilib, mutanosib miqdorda unga tovon to'lash shartlari asoslantirilishi va ushbu takliflarning inobatga olinishi yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini bir xilda qo'llashga xizmat qiladi (*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024-yil 26-fevraldagi 02/6-09-41-sonli dalolatnomasi*).

Dissertatsiya tadqiqotida keltirilgan taklif va tavsiyalar asosida "Inson huquqlari" fanini o'qitish yuzasidan metodologik tavsiyalar va "Inson huquqlari" fanini ta'lim muassasalarida o'qitish dasturi ishlab chiqildi. Ular O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasining o'quv jarayonida qo'llanilmoqda (*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining 2025-yil 7-fevraldagi 346-sonli, Huquqni muhofaza qilish akademiyasining 2025-yil 3-martdagi, FVV Akademiyasining 2024-yil 19-martdagi 4b/2-880-sonli dalolotnomalari*).

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy natijalari, ilmiy xulosalar xalqaro hamda respublika darajasidagi ilmiy-amaliy anjumanlar, jumladan, 7 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiysida muhakomadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 33 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, OAK tomonidan ro'yxatga olingan milliy jurnallarda – 14 ta, xalqaro jurnallarda – 2 ta, ilmiy anjuman to'plamlarida – 14 ta maqola va tezis, shuningdek, 1 ta monografiya nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 258 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi, dissertatsiya mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning oʻrganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga bogʻliqligi, tadqiqotning nazariy va empirik asoslari, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, oʻrganish usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, natijalarning eʼlon qilinganligi, dissertatsiya hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Inson huquqlari va erkinliklarini cheklashning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlanib, uning *“Inson huquq va erkinliklariga huquqiy cheklovlarning mohiyati va tasnifi”* ga bagʻishlangan birinchi paragrafida falsafa nuqtayi nazaridan inson huquq va erkinliklari tahlil qilinadi, tadqiqotchi yuridik fan sohasida ham shaxs huquqlari va erkinliklariga nisbatan huquqiy cheklovlarni bir xil qoʻllash masalasi bugungi kungacha hal qilinmaganligini, qonunchilik jarayonida va huquqni qoʻllash amaliyotida foydalanishning nazariy tushunishda qiyinchiliklar tugʻdirishini taʼkidlab oʻtadi. Tadqiqotchi, A.V. Malkoning fikriga qoʻshilgan holda cheklov bilan taqiqlov tushunchalari mazmunan yaqinligini bayon etib, har qanday taqiq cheklovdir, ammo huquq sohasidagi har bir cheklash taqiq emas, deb xulosa qiladi.

Dissertatsiyaning ushbu paragrafida inson huquq va erkinliklarini cheklash masalalarida bir qator olimlarning fikrlarini, qarashlarini tahlil qilinib, inson huquq va erkinliklarini cheklash tushunchasini mohiyatini ochib bergan, huquqiy tartibga solish usuli sifatida inson huquq va erkinliklarini, huquqiy cheklashning mualliflik taʼrifi berilgan. Shuningdek, dissertant inson huquq va erkinliklarini huquqiy cheklash shartlariga (huquqiy rejimga), maqsadlariga, asoslariga, subyektlariga, ushbu cheklovlarning mazmuniga va ularni qoʻllash tartibiga qarab, ularni bir qator turlarga ajratishni taklif qilgan.

*“Oʻzbekiston va xorijiy mamlakatlarda inson huquq va erkinliklarini qonuniy cheklashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari”* nomli paragrafda dissertant inson huquq va erkinliklarini taʼminlash asnosida ayrim huquqlarni cheklash asoslarini tahlil qilish borasida yagona yondashuv mavjud emasligini eʼtirof etgan. Shuningdek, ushbu paragrafda huquqiy adabiyotlar asosida shaxs huquq va erkinliklarini cheklashning normativ (rasmiy) va faktik (moddiy) asoslarini keltirib oʻtgan, mazkur cheklovlarni qoʻllashda shaxsiy huquq va erkinliklar bilan jamoaviy huquqiy erkinliklar oʻrtasida tafovut mavjudligi, keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlar konstitutsiyaviy rivojlanishida koʻproq jamoaviy (ommaviy) huquq va erkinliklarga koʻproq axamiyat berilayotganligi, bu tendensiyadan yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham foydalanilganligi qayd etilgan.

Shuningdek, Konstitutsiyaning bir qator yangi normalarida *“cheklash”* atamasi inson huquq va erkinliklariga nisbatan qoʻllanilishi (21 – *shaxsni erkin kamol topish huquqi*, 25 – *yashash huquqi*, 26 – *qiynoqlardan ozod boʻlish*, 27 – *daxlsizlik huquqi*, 28 – *aybsizlik prezumpsiyasi*, 29 – *malakali yuridik yordam olish huquqi*, 31 –

*shaxsiy hayot daxlsizligi, 32 – erkin harakatlanish huquqi, 33 – fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi, 37 – davlat xizmatiga kirish, 38 – miting va namoyish o‘tkazish huquqi, 67 – monopoliya faoliyati, va boshqa moddalar) aniq misollar bilan tahlil qilingan.*

Dissertatsiyada jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi tushunchalariga yagona yondashuv mavjud emasligini ta’kidlanib, misol sifatida bu boradagi bir qator huquqshunos olimlarning fikrlari hamda AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniya kabi xorijiy mamlakatlar qonunchiligidan misollar keltirilgan.

“*Qonunga itoatkor xulq-atvorga ega bo‘lgan shaxs huquq va erkinliklariga qonuniy cheklovlar*”ga bag‘ishlangan uchinchi paragrafda, yashash huquqi kabi har qanday vaziyatda cheklanmaydigan huquq bo‘yicha AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya kabi xorijiy mamlakatlar tadqiqotchilari bilan muloqatga kirishib ularning bir birini inkor etuvchi nuqtayi nazarlarini aytib, yashash huquqi cheklab bo‘lmaydigan huquq ekanligini ta’kidlagan va bu boradagi professor M.X. Rustambayevning nuqtayi nazarini qo‘llab quvvatlagan.

Shuningdek, dissertant inson huquq va erkinliklarni cheklashning yana bir turi din erkinligi masalasida to‘xtalib, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya kabi mamlakatlarda din davlatdan ajratilganligini, biroq deyarli barcha g‘arb mamlakatlarida diniy liboslarda jamoat joylarida yurish, diniy ramzlarni taqib yurish, ta’lim muassasalariga kiyib kelishga taqiq qo‘yilganligini, ta’lim muassasalarida diniy ta’lim olishga ham cheklov qo‘yilganligini qayd etib, g‘arb mamlakatlarining din erkinligi sohasidagi qonunchiligi va amaliyotini O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan bu boradagi qonunchilik normalari va amaliyot bilan taqqoslab, milliy qonunchilikda din simbolikalaridan foydalanish tartibi, davlat va ta’lim muassasalarida diniy liboslarda yurish-turish tartibi belgilanmaganligini mazkur qonunning jiddiy kamchiliklaridan biri sifatida keltirib o‘tib, ushbu qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiq, degan fikrni bayon qilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar qonunchiligida inson huquq va erkinliklarini huquqiy cheklash tizimi**” deb nomlanib, ushbu bobning “*Maxsus huquqiy maqomga ega bo‘lgan shaxslar uchun inson huquq va erkinliklarini qonuniy cheklash*” deb nomlangan paragrafida qoida tariqasida, bunday cheklovlar huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, harbiy xizmatchilar va boshqa davlat xizmatchilari uchun mo‘ljallanganligi, ushbu cheklovlarga: harakat erkinligi, vijdon va din erkinligi, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqi, maxsus kasbiy maqomga ega bo‘lgan shaxslarning shaxsiy hayoti huquqlari keltirib o‘tilgan.

Ushbu masalada Germaniya, AQSh, Rossiya Federatsiyasi kabi ko‘plab mamlakatlar qonunlarida 5 yildan oshmagan muddatga yoki mehnat shartnomasida belgilangan muddatlarda mamlakat hududini tark etish huquqi cheklanganligi, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat sirlari to‘g‘risida”gi qonunining 30-moddasi 3-qismida “maxfiy” grifli maxfiy ma’lumotlar tashuvchilari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqish bir yilgacha belgilangan bo‘lsa-da, ushbu qonunning 30-moddasida keltirib o‘tilgan cheklovlarni davlat siri yoki xizmat sirlarini tashkil etuvchi ma’lumotlar bilan bevosita ishlamaydigan xodimlar va xizmatchilarga nisbatan tatbiq etish masalasini qayta ko‘rib chiqib, ularga nisbatan

bunday cheklovlarni olib tashlashlari maqsadga muvofiqligi haqida mazkur qonunga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni taklif etilgan.

Diniy fikr bildirish erkinligiga nisbatan eng qattiq cheklovlar huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarga yuklatilganligini, bunday cheklovlar davlat manfaatlarining ustuvorligi bilan asoslanishini aytib o'tib, dissertant bu boradagi yana yuqorida keltirib o'tilgan mamlakatlar amaliyotini tahlil qilib, davlat xizmatchilari xizmat faoliyati paytida diniy liboslar, ramzlardan foydalanishi mumkin emasligi va diniy ibodatlar qilishiga cheklovlar qo'yilganligini e'tirof etadi.

Shu munosabat bilan, tadqiqotchi 2024-yildagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"<sup>1</sup> hamda "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"<sup>2</sup> qonunlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, harbiy xizmatchilarga o'z xizmat vakolatlarini amalga oshirish jarayonida turli xil mukofot, sovg'alar olishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, siyosiy partiyalarga a'zo bo'lish kabi bir qator cheklovlar qo'yilganligini qayd etib, unda keltirilgan istisno etuvchi holatlarni qonunda aniq bayon etish qonunni to'g'ri qo'llashda muhim ahamiyat kasb etishini bayon etib, shu qonunlarni takomillashtirish bo'yicha o'z takliflarini bildirilgan.

Ushbu bobning "*Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlari tomonidan alohida huquqiy rejim sharoitida inson huquqlari va erkinliklariga cheklovlar qo'llashning xususiyatlari*" deb nomlangan paragrafida esa dissertant alohida huquqiy rejim sharoitida inson huquq va erkinliklarini cheklash borasida A.V. Malko va V.Y. Uxovlar tomonidan alohida huquqiy rejimlarga berilgan ta'riflarni ma'qullab, shu rejimlarning xususiyati va mohiyatini to'liq qamrab olgan va bu ta'rifga berilgan tushunchaga qo'shilishini ma'lum qilgan.

Tadqiqotchining fikricha, "Favqulodda holat to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunni fuqarolarning kundalik hayotiga zamonaviy axborot texnologiyalarini faol joriy etish bilan bog'liq vaziyatlarda, favqulodda vaziyat rejimi hududida Internetga kirishni qisman yoki to'liq cheklash to'g'risida, favqulodda holatlarda qo'llaniladigan cheklovlarni ichki ishlar yoki milliy gvardiya organlari tomonidan amalga oshirilishi to'g'risidagi aniq qoidalar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, dissertant O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi qonuniga favqulodda holatlar sharoitida ichki ishlar organlarining hibsga olish qabulxonalarida ma'muriy qamoq jazosini o'tash muddatini tartibga solish maqsadida ushbu qonuning 5-moddasini ma'muriy qamoq muddatini cho'zishga faqat sudning tegishli qarori asosida yo'l qo'yilishini nazarda

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 29-noyabrda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-1008-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.12.2024-y., 03/24/1008/0988-son

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-son Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.06.2024-y., 03/24/931/0402-son

tutuvchi yangi ikkinchi qism bilan to'ldirish lozimligi asoslandi hamda qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi "*Maxsus huquqiy rejim sharoitida sud va prokuratura organlarining inson huquq va erkinliklarini cheklashga oid vakolatlari*"ga bag'ishlangan bo'lib, unda favqulodda vaziyatlarda prokuror va sudning roli ham qamrab olingan.

Dissertant prokurorlar cheklovchi choralar, ayniqsa, asosiy huquq va erkinliklarga ta'sir ko'rsatadigan holatlar va vaziyatlardan xabardor bo'lishlari, bunday cheklovlardan foydalanishda suiiste'molga yo'l qo'yimaslik, cheklanishi mumkin bo'lmagan huquqlarga nisbatan har qanday cheklovlar qo'llanishining oldini olishlari lozimligini e'tirof etib, sudyalari, sud xodimlari, advokatlar va prokurorlar o'z faoliyatlarini davom ettirishlari uchun komendantlik soati, harakatlanish cheklovlari va boshqa holatlardagi cheklovlar tadbiq etilsada, biroq cheklovlar, sud vakillari va tegishli mutaxassislar bunday choralar ko'rilmaydigan kasblar ro'yxatidan o'rin olib, ularning ish va vazifalarini bajarish qobiliyatini cheklanmaslik lozim degan xulosaga keladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Favqulodda holatda inson huquqlarini ta'minlashning xalqaro-huquqiy jihatlari**" deb nomlanib, uning "*Favqulodda holat institutining tushunchasi, mohiyati va xususiyatlari*" deb nomlangan birinchi paragrafida favqulodda holatning huquqiy rejimlarni joriy etishda turli xil yondashuvlar mavjudligi qayd etilgan, bir qator huquqshunos olimlarning (A.V. Melexin, V.V. Lastochkin, I.L. Dyachenko) bir biriga mos kelmaydigan ta'riflari keltirilgan.

Dissertant bu tadqiqotchilarning huquqiy rejim to'g'risidagi fikrlarini tahlil qilib, uni O'zbekiston Respublikasidagi mavjud mahalliy sharoitlarga moslashtirgan holda o'z ta'rifini berib o'tgan. Dissertantning ta'kidlashicha, ushbu huquqiy institut zamonaviy sharoitda faqat konstitutsiyaviy xususiyatga ega bo'lishi lozim.

Muallif dunyoning ko'plab mamlakatlari amaliyotida "favqulodda holat" tushunchasi turlicha nomlanishini, xususan, Jazoir, Angola, Bolgariya, Vengriya, Zimbabve, Hindiston, Iordaniya, Irlandiya, Misr, Marokash, Mali, Nikaragua, Polsha, Ruminiya, AQSh, Fransiya va boshqa mamlakatlar qonunchiligida "*favqulodda holat*" atamasi qo'llanilgan bo'lsa, Buyuk Britaniya, Vyetnam, Niderlandiya, Koreya Respublikasi, Filippin va boshqa davlatlar qonunchiligida "*harbiy holat*", Belgiya va Italiya kabi mamlakatlarda "*urush holati*", Germaniyada "*tahlikali holat*", Ispaniyada "*taxdid holati*", Gabonda "*xushyorlik holati*" kabi favqulodda holatlarning turli nomlanishini keltirib o'tgan. Shu munosabat bilan, dissertant favqulodda holatning yuridik institutining ta'rifini yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi talabidan kelib chiqqan holda, takomillashtirilgan tahririni taklif qilgan.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi "*Favqulodda holatlarda jamoat xavfsizligini ta'minlash va terrorizmga qarshi kurashishda inson huquq va erkinliklarini cheklash*" masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi va xalqaro huquqiy hujjatlarda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash bo'yicha xalqora

standartlar talablari milliy qonunchilik normalari bilan uyg'unlashtirilgan holda bayon etilgan.

Shuningdek, muallif tomonidan terrorizm xavfi real mavjud bo'lgan vaziyatlarda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida joriy etiladigan cheklovlar xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari talablariga javob berishi lozimligi asoslangan, milliy qonunchilik normalarini xalqaro standartlarga moslashtirish tavsiya etilgan.

Ushbu bobning uchinchi paragrafi "*Favqulodda holatlar joriy qilish bo'yicha xorij tajribasi*"ga bag'ishlangan bo'lib, unda dissertant AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya kabi g'arb mamlakatlari, Xitoy, Hindiston, Yaponiya kabi Osiyo mamlakatlaridagi favqulodda vaziyat rejimining turlari haqidagi ma'lumotlar bayon qilingan. Bu borada favqulodda holat rejimini joriy etish asoslari bir biridan farq qiladi, masalan, Fransiyada Prezidentning favqulodda choralar ko'rish to'g'risidagi qarori parlament yig'ilishida ma'qullanishi loziml. AQShda favqulodda rejim joriy etilishini hokimiyatning barcha uchta darajasi – federatsiya, shtatlar va mahalliy hokimiyat organlari ma'qullashi talab etiladi.

Dissertant fikricha, favqulodda holatlar aniq va tartibli bayon etilgan 1966-yilgi Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktida favqulodda holat instituti juda qisqacha bayon etilgan. Uning mazmunini to'liq tushunish uchun boshqa hujjatlarga ham murojaat qilish zarurati tug'iladi va natijada favqulodda holat institutining maqsadi va mazmunini turli xalqaro huquqiy hujjatlardan izlashga to'g'ri keladi. Bu esa favqulodda holat institutining turli xil talqinlari kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Xalqaro-huquqiy va mintaqaviy hujjatlarda favqulodda holatlar ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari**" deb nomlangan. Ushbu bobning birinchi paragrafi "*Inson huquqlari bo'yicha xalqaro organlar tomonidan favqulodda holatlarni talqin qilishning xususiyatlari*" deb nomlanib, unda dissertant bir nechta xalqaro-huquqiy hujjatlarda keltirib o'tilgan "urush paytida yoki millat hayotiga tahdid soladigan boshqa favqulodda holatlar" tushunchasi mazmuni har xil xalqaro hujjatlarda turli mazmundagi so'zlar bilan ifoda etilganligini tahlil qilgan.

Bu holatlar Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 4-moddasida "millat hayoti tahdid ostida qolgan va bu holat haqida rasmiy ravishda e'lon kilinganda"<sup>1</sup> degan jumlar bilan ifodalangan bo'lsa-da, Amerikalararo konvensiya, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasi va Yevropa xartiyasida bu so'zlar boshqacha so'zlar bilan ifodalanganligini inobatga olib, xalqaro Pakt qoidalari ustunlikka egaligini qayd etilgan. Shu munosabat bilan dissertant davlatlar o'z hududlarida favqulodda holatlar joriy etganda asosan, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 4-moddasidagi talablardan kelib chiqish maqsadga muvofiqligini, asoslagan.

Dissertant Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 4-moddasi 1-bandi, Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasining 27-

---

<sup>1</sup> Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalari to'plami. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. – B. 14.

moddasini hamda Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 15-moddalari xalqaro organlar tomonidan o'tkazilgan monitoringini bayon etib, Inson huquqlari bo'yicha Amerikalalararo sud va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining joriy etiladigan cheklovlar ishtirokchi davlatlar har doim qonuniylik va qonun ustuvorligi prinsipinlarini ham hurmat qilishlari shartligini asoslaydi.

Ushbu bobning keyingi paragrafi *"Inson huquqlari bo'yicha chekinishga yo'l qo'yilmaydigan huquq va majburiyatlarning xususiyatlari"* deb nomlanib, dissertant cheklanishi mumkin bo'lmagan inson huquqlaridan yana biri orqaga qaytish kuchiga ega qonunlardan ozodlik huquqi va *"ne bis in idem prinsipi"* Xalqaro pakt, Amerikalalararo konvensiya va Yevropa konvensiyasi bilan kafolatlanishi haqida ham fikr bildirib, favqulodda holat, ayniqsa o'ta og'ir jinoyatlarga qarshi kurashish uchun orqaga qaytish kuchiga ega qonunlarni qabul qilish o'rinli tuyilsa-da, bu inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar tomonidan qat'iy taqiqlanganligini, shu jumladan favqulodda holatda ham, har qanday muayyan harakatning oqibatlarini, jinoiy ta'qib qilish va tegishli sanksiyalarni asossiz qo'llashdan himoya qilinishi lozim deb hisoblaydi.

Shu o'rinda dissertant professor M.X. Rustambayevning jinoyat qonunchiligining qonunning orqaga qaytish kuchi haqidagi holatlari Jinoyat kodeksining (keyingi o'rinlarda JK) 13-moddasining 2 va 3-qismlarida mustahkamlanganligi, ularga muvofiq qilmishning jinoiyligini bekor qiladigan, jazoni yengillashtiradigan yoki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilaydigan qonun orqaga qaytish kuchiga egaligi to'g'risidagi fikrlariga qo'shilgan holda amaldagi JKdagi bu qoida Yevropa konvensiyasining 7-moddasi 1-bandi talablariga to'liq muvofiq kelishini e'tirof etgan.

**"O'zbekiston Respublikasida maxsus huquqiy rejimni joriy etishning xususiyatlari"** deb nomlangan beshinchi bobning birinchi paragrafi *"O'zbekistonda maxsus huquqiy rejimni joriy qilish amaliyoti"* deb nomlanib, ushbu paragrafda dissertant O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishishdan oldingi davrida, alohida huquqiy rejim joriy etish masalasi faqat sobiq Ittifoq markazi tomonidan amalga oshirilib kelinganligini bayon etgan. Shuningdek, O'zbekistonning mustaqillik davrida ayrim hududlarda favqulodda holat joriy qilish amaliyoti qonuniy tahlil qilingan.

*"O'zbekiston Respublikasida favqulodda va harbiy holatni joriy etish jarayonida inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini ta'minlashning ayrim jihatlari"* deb nomlangan paragrafda dissertant yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasida Prezidentning konstitutsiyaviy vakolatlari belgilanganligini bayon etib, 109-moddaning 18 va 19-bandlarida davlat rahbarining "urush holati" yoki "favqulodda vaziyat" e'lon qilish vakolatlari keltirib o'tilganini ta'kidlangan.

Dissertantning fikricha, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada favqulodda holat joriy etish yuzasidan Prezident vakolati kengaytirilgan. Shu munosabat bilan, tadqiqotchining fikricha Konstitutsiyaning 109-moddasi 18-bandidagi "O'zbekiston Respublikasiga hujum qilinganda yoki tajovuzdan bir-birini mudofaa qilish yuzasidan tuzilgan shartnoma majburiyatlarini bajarish zaruriyati tug'ilganda urush

holati, umumiy yoki qisman safarbarlik e'lon qilishi"<sup>1</sup> to'g'risidagi qoida, O'zbekiston Respublikasining "Favqulodda holat to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunini asosiy tushunchalar berilgan 3-moddasida izoh berilib o'z ifodasini topsa, qonundagi bu bo'shliqqa barham berilgan bo'lardi.

Dissertatsiyaning "*Koronavirus (COVID-19) pandemiyasi sharoitida inson huquqlarini cheklashning ayrim xususiyatlari*" nomli paragrafida dissertant COVID-19 global pandemiyasi inson huquqlariga uzoq muddatli tahdid solganligini aytib, pandemiyaning dunyo bo'yicha tarqalishi inson huquqlari sohasida ham bir qator masalalarni kun tartibiga qo'yganligini, xususan, insonlarning harakatlanish erkinligi, yig'ilishlar, mitinglar, namoyishlar o'tkazish, kabi huquqlari vaqtincha cheklanganligi, shu sababli O'zbekistonda ham tegishli Farmon qabul qilinib, aholi o'rtasida karantin joriy etilib, jamiyat xavfsizligini ta'minlash uchun aholiga uyidan tashqariga chiqishi, ko'chaga chiqqanda esa shaxsiy himoya vositasi (niqob)da bo'lishi, oradagi masofani saqlash shartligi, ommaviy tadbirlar, to'y-tomoshalar o'tkazish ham cheklanganligini bayon qilgan.

Tadqiqotchi BMTning "2019-yilgi koronavirus (COVID-19) bilan kasallanishga qarshi kurashishda global hamkorlik" rezolyutsiyasini<sup>2</sup> qabul qilishda O'zbekiston Respublikasining ishtirokiga ijobiy baho berib, COVID-19 kabi favqulodda vaziyatlar vujudga kelganda, agar bunday cheklovlar qonuniy ravishda joriy etilsa, o'ta zarur va ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishini ta'kidlagan.

## XULOSA

Inson huquqlarini ta'minlash va favqulodda holatlarda qonunda nazarda tutilgan holatlardagina ayrim huquqlarni vaqtincha cheklash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalar, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqildi:

### I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. Tadqiqot natijalariga ko'ra, dissertatsiyada favqulodda holatlarda huquq va erkinliklarni qonuniy cheklash konsepsiyasi majburiy xarakterdagi huquqiy tartibga solish usuli sifatida taklif qilingan bo'lib, u Konstitutsiya va qonunlar asosida qonunga itoatkor fuqarolarning davlat tomonidan qonunda ruxsat etilgan xatti-harakatlarining chegaralarini (hajmini kamaytirish) belgilashdan iborat – shaxs erkinligi va jamoat manfaatlarining qadr-qimmatini himoya qilish yoki jamoat manfaatlarini himoya qilish maqsadida huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning huquq va erkinligini cheklash orqali uning huquqiy maqomini vaqtincha chegaralash taklif etilgan.

2. Xorijiy va milliy qonunchilik, yuridik adabiyotlar tahlili asosida "*maxsus huquqiy rejim*", "*tan omaslik*", "*toraytirish*", "*to'xtatib turish*", "*cheklash*",

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – T.: Adolat, 2023. – B. 188.

<sup>2</sup> *Qarang*: Resolution adopted by the General Assembly on 2 April 2020 74/270. Global solidarity to fight the coronavirus disease 2019 (COVID-19) // UN Document A/RES/74/270 /URL: <https://docs.un.org/en/A/RES/74/270>

*“urush holati yoki qurolli to‘qnashuv”, “favqulodda holat”, “favqulodda holatlarda jamoat tartibini saqlash”, “huquqdan mahrum qilish”, “qamal holati”* tushunchalariga nisbatan zamonaviy yondashuvdagi quyidagicha mualliflik ta’riflari shakllantirildi va ularni milliy qonunchilikka kiritish zarurati asoslantirildi:

*Maxsus huquqiy rejim* deganda O‘zbekiston Respublikasining suvereniteti va hududiy yaxlitligiga, konstitutsiyaviy tuzumiga, fuqarolarining huquqlari va erkinliklariga tashqi va ichki tahdidlar yuzaga kelgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi yoki uning bir qismi hududida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan joriy etiladigan rejimlar tushuniladi va nafaqat davlat hokimiyati, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, balki huquqiy munosabatlarning boshqa subyektlari faoliyatining: korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jismoniy va yuridik shaxslar maxsus rejimini nazarda tutadi;

*Tan olmaslik* – bu muayyan huquqlarni huquqiy mustahkamlash yo‘qligi (masalan, chet elliklar uchun, ba’zi siyosiy huquqlarning cheklanishi) yoki ularning mensimaslik (masalan, davlat o‘z fuqarosi uchun boshqa davlat fuqaroligini o‘lganligini tan olmaslik);

*Toraytirish* – bu huquq (erkinlik) mazmuni va ko‘lamining qisqarishi;

*To‘xtatib turish* – bu huquqdan mahrum qilish yoki tiklash to‘g‘risida yakuniy qaror qabul qilinmaguncha huquqni vaqtincha cheklash (masalan, jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchini ushlab turish va ushlab turish paytida shaxsiy erkinlikni cheklash);

*Cheklash* – bu shaxs huquq erkinligi va jamoat manfaatlarining qadr-qimmatini himoya qilish maqsadida qonunga bo‘ysunuvchi shaxsning ruxsat etilgan xatti-harakatlari chegaralarini Konstitutsiya va boshqa qonunlar asosida mumkin qadar qisqartirish (hajmini kamaytirish), shu bilan bir vaqtda shaxsiy erkinlik va jamoat manfaatlarini himoya qilish maqsadida (ruxsat berish) yoki qonuniy huquqdan chetlashtirishdan iborat bo‘lgan majburlash xususiyatiga ega huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning maqomini, davlat tomonidan belgilashdir.

*Urush holati yoki qurolli to‘qnashuv* deganda favqulodda holatning bir turi tushunilib, xalqaro huquqiy diplomatik protsedurada va milliy qonunchilikda nazarda tutilgan holatga aytilib, rasmiy belgilangan tartibda bir Davlat tomonidan boshqa Davlatga yoki jinoiy qurolli jangari to‘dalarga ular o‘rtasida tinchlikni to‘xtatish va urush holatiga o‘tish to‘g‘risida ogohlantirishdan iboratdir”.

*Favqulodda holat* – bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mamlakatimizning butun hududida yoki ayrim joylarda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumiga real tahdidlar bo‘lgan taqdirda joriy etilgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati uchun maxsus huquqiy rejimni belgilaydigan tarmoqlararo huquqiy institut bo‘lib, u vaziyatni tezda normallashtirish, qonuniylik va tartibotni tiklash, fuqarolar xavfsizligiga tahdidlarni bartaraf etish va ularga zarur yordam ko‘rsatish, fuqarolarning xavfsizligi yoki respublika konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish maqsadida joriy etiladi;

*Favqulodda holatlarda jamoat tartibini saqlash* – bu jamoat joylarida odamlar o‘rtasida vujudga keladigan va rivojlanadigan, qonuniy amalga oshirilishi shaxsiy va jamoat xavfsizligiga rioya etilishini, odamlarning normal muloqotini, sha’ni,

qadr-qimmatini, hayoti va sog'lig'ini himoya qilinishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, birinchi navbatda, ichki ishlar organlari, milliy gvardiya, prokuratura, davlat xavfsizlik xizmati, favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa fuqarolik tashkilotlari faoliyati bilan ta'minlangan davlat va jamiyatning muvofiqlashtirilgan ijtimoiy-huquqiy jamoat munosabatlari tizimi;

*Huquqdan mahrum qilish* – bu muayyan huquqlarning bekor qilinishi. Masalan, chet elliklarni mamlakatdan chiqarib yuborish orqali O'zbekistonda qolish huquqidan mahrum qilish yoki shaxsni maxsus huquqdan mahrum qilish;

*Qamal holatda* muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan, biron bir hudud, shahar yoki harbiy obyektning dushman tomonidan qurshab olinib, oziq-ovqat, doridarmon, suv, qurol-yarog', yordamchi kuchlar va boshqa resurslarning kirib kelishi cheklanadi yoki to'xtatiladi. Bu taktika dushmanni taslim bo'lishga majbur qilish yoki uning kuchini susaytirish maqsadida qo'llaniladi.

3. Favqulodda holat instituti har doim ham ma'lum bir davlat Konstitutsiyasida batafsil detalli tartibga solinmasada, davlat hokimiyatini amalga oshirishning odatiy, oddiy rejimi Konstitutsiya bilan belgilanganidek, favqulodda vaziyat rejimi ham Konstitutsiya bilan belgilanishi kerak. Shuningdek, maxsus huquqiy rejim faqat davlatning suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligi, odamlarning normal hayotiy faoliyatiga, sanoat, maishiy, iqtisodiy va boshqa faoliyat turlariga to'sqinlik qiladigan vaziyatlarda joriy etilishi zarur.

4. Yuridik fanda shaxs huquqlari va erkinliklariga nisbatan huquqiy cheklovlarni bir xil qo'llash masalasi bugungi kungacha hal qilinmaganligi, huquq va erkinliklarni cheklashning mohiyati, o'ziga xos belgilari va xususiyatlarini aniqlashda yagona yondashuv mavjud emasligi, qonunchilik jarayonida va huquqni qo'llash amaliyotida foydalanishni nazariy tushunishda qiyinchiliklar tug'dirishi xorijiy mamlakatlar tajribasi orqali isbotlandi.

5. Hozirgi vaqtda ommaviy (jamoat va davlat) manfaatlar huquq va erkinliklarning cheklanishini asoslashda muhim rol o'ynashi sababli, dunyo mamlakatlari konstitutsiyaviy rivojlanishida ommaviy (jamoaviy) huquqlarga ko'proq ustunlik berilayotganligi, bu holat O'zbekiston Konstitutsiyasining bir qator yangi moddalaridagi "cheklash" atamasi inson va fuqarolik huquqlari va erkinliklariga nisbatan eng ko'p qo'llanilishi (Konstitutsiyaning "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlangan ikkinchi bo'limining quyidagi: 21, 27, 28, 29, 31, 32, 33, 37 va boshqa moddalari) isbotlandi.

6. O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki ayrim hududlarida favqulodda holat joriy etilganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 – shaxsni erkin kamol topish huquqi, 25 – yashash huquqi, 26 – qiynoqlardan ozod bo'lish, 27 – daxlsizlik huquqi, 28 – aybsizlik prezumpsiyasi, 29 – malakali yuridik yordam olish huquqi, 31 – shaxsiy xayot daxlsizligi, 32 – erkin harakatlanish huquqi, 33 – fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi, 37 – davlat xizmatiga kirish, 38 – miting va namoyish o'tkazish huquqi, 67 – monopoliya faoliyati to'g'risidagi moddalarida nazarda tutilgan huquq va erkinliklari cheklanmasligi asoslantirildi.

7. Mamlakatga koronavirus infeksiyasini kirib kelishi munosabati bilan uni bartaraf etishga yo'naltirilgan milliy qonunchilik normalari tahlil qilindi. COVID-19 davrida joriy etilgan cheklovlar haqida fikr va mulohazalar bildirildi.

Koronavirus infeksiyasining salbiy oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot, ma‘muriy-huquqiy yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ishlar ko‘lami va natijalariga baho berildi.

## **II. Favqulodda holatlarga oid qonunchilikni normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar**

1. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 21-moddasining 3-qismi quyidagi tahrirda bayon etilishi taklif qilindi: *“Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta‘minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin”*.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuning 8-moddasiga *“Vazirlar Mahkamasining favqulodda vaziyatlarda shunday vaziyatlar yuz bergan hududlarga odamlarni va transport vositalarining kirib-chiqishini vaqtincha cheklash”* bilan bog‘liq taklif asoslantiriladi.

3. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining faoliyatini takomillashtirilishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar taklif etiladi, xususan:

- “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunning 29-moddasi uchinchi qismida *“Senat favqulodda holat amal qilib turgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas”* jumlasini bayon etishda;
- “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunning 34-moddasi uchinchi qismida *“Qonunchilik palatasi favqulodda holat amal qilib turgan davrda tarqatib yuborilishi mumkin emas”* mazmundagi takliflar asoslantirildi.

4. O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish maqsadida *“Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”*gi qonuniga quyidagilar taklif qilinadi:

- 12-moddaning to‘rtinchi xatboshisi bayon etishda: *“patentlar bilan muhofaza qilinadigan sanoat mulki ob‘ektlaridan tarkib topgan vositalarni tabiiy ofatlar, halokatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda holatlarda patent egasini eng qisqa muddatda xabardor qilgan va keyinchalik mutanosib miqdorda unga tovon to‘lagan holda qo‘llash”*;
- 32-moddaning to‘rtinchi va beshinchi qismlarini bayon etishda: *“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat mudofaasi va xavfsizligini ta‘minlash, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish bilan bog‘liq so‘nggi zaruriyat yuzaga kelgan taqdirda, sanoat mulki ob‘ektidan patent egasining rozilgisiz foydalanilishiga uni bu haqda eng*

*qisqa muddatda xabardor qilgan va keyinchalik mutanosib miqdorda unga tovon to'lagan holda ruxsat berishi mumkin*".

5. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Davlat sirlari to'g'risida"gi Qonunining 30-moddasining 3 qismini quyidagi tahrirdagi qo'shimcha bilan to'ldirish: *"maxfiy" grifli maxfiy ma'lumotlar tashuvchilari davlat siri yoki xizmat sirlarni tashkil etuvchi ma'lumotlar bilan bevosita ishlamaydigan xodimlar va fuqarolik xizmatchilariga nisbatan bunday cheklovlarni olib tashlanishi lozim*" taklif etiladi.

6. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyulida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'RQ 699-sonli qonunning 7-moddasini yangi quyidagi tahrirdagi 6-band bilan to'ldirish taklif etiladi: *"Davlat xizmatchilari o'z xizmat faoliyati vaqtida diniy liboslarda yurishlari, diniy ramzlardan foydalanishlari va ibodat qilishlari cheklanadi"*.

7. O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonuni davlat xizmatchilari va mansabdor shaxslari tomonidan xizmat faoliyati davomida mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishning oldini olish maqsadida qonunning 8-moddasi 4-bandini yangi tahrirdagi *"davlat xizmatchilari tomonidan o'z mol-mulkini deklarasiya qilmasdan yashirganligi uchun qonun hujjatlarda nazarda tutilgan holda javobgarlikka sabab bo'ladi"* degan band bilan to'ldirish taklif etiladi.

8. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida"gi qonuniga favqulodda holatlar sharoitida ichki ishlar organlarining xibsga olish qabulxonalarida ma'muriy qamoq jazosini o'tash muddatini tartibga solish maqsadida ushbu qonun 5-moddasini *"ma'muriy qamoq muddatini cho'zish faqat sudning tegishli qarori asosida yo'l qo'yiladi"* degan yangi ikkinchi qism bilan to'ldirish yuzasidan qonun loyihasi ishlab chiqildi (*dissertatsiyaga ilova qilinadi*).

9. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 33-moddasi uchinchi qismiga asosan fuqarolarning kundalik hayotiga zamonaviy axborot texnologiyalarini faol joriy etish bilan bog'liq vaziyatni tahlil qilib, favqulodda holat rejimi hududida Internetga kirishni qisman yoki to'liq cheklash to'g'risida "Favqulodda holatlar to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuniga qo'shimchalar kiritishning maqsadga muvofiqligi asoslandi.

10. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 109-moddasi 18-bandidagi urush holati e'lon qilish tartibi Urush vaqtida fuqaro aholini himoya qilish to'g'risida 1949-yilgi Jeneva (IV) konvensiyasi talablariga muvofiqlashtirilib, O'zbekiston Respublikasining "Favqulodda holat to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunining 3-moddasida uning quyidagi ta'rifini berish taklif etiladi: *"Urush holati" yoki "qurolli toqnashuv" – favqulodda holatning bir turi tushunilib, xalqaro huquqiy diplomatik procedurada va milliy qonunchilikda nazarda tutilgan holatga aytilib, rasmiy belgilangan tartibdabir davlat tomonidan boshqa davlatga yoki jinoiy qurolli jangari to'dalarga ular o'rtasida tinchlikni to'xtatish va urush holatiga o'tish to'g'risida ogohlantirishdan iboratdir"*.

11. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuniga favqulodda holatlar joriy etilgan hududlarda qo‘llanilgan cheklovlar sababli tadbirkorlik subyektlari shartnoma majburiyatlarini bajara olmagan taqdirda, ularni javobgarlikdan ozod etish to‘g‘risidagi norma kiritilishi taklif etildi.

### **III. Favqulodda holatlarda inson huquq va erkinliklarini cheklash faoliyatini samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar**

1. Inson va fuqarolik huquqlari va erkinliklarini huquqiy cheklash shartlariga (huquqiy rejimga), maqsadlariga, asoslariga, subyektlariga, ushbu cheklovlarning mazmuniga va ularni qo‘llash tartibiga qarab, ularni quyidagi turlarga ajratish taklif etiladi:

*Birinchi*dan, inson huquq va erkinliklarni cheklashni asosiy qismini xalqaro-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan cheklash va milliy qonunchilikda keltirib o‘tilgan cheklashga ajratish;

*Ikkinchi*dan, odatiy huquqiy rejimning elementi bo‘lgan huquq va erkinliklarni cheklash;

*Uchinchi*dan, favqulodda vaziyatlar bilan bog‘liq cheklovlar: a) qonunga bo‘ysunuvchi shaxslarning huquqlari va erkinliklarini qisqa muddatga cheklash; b) shaxs huquqbuzarlik sodir etganda huquq va erkinliklarni cheklash.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining umumiy yurisdiksiya sudlari uchun “*Favqulodda holatlar davrida inson huquq va erkinliklarini ta’minlashga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida*”gi Plenumi qaror loyihasi ishlab chiqilib, unda sud amaliyotida inson huquq va erkinliklarini cheklashga oid ishlarni ko‘rib chiqishning protsessual tartibini joriy etish taklif etiladi.

3. Favqulodda holat davrida hatto komendantlik soati joriy qilingan, harakatlanishga cheklovlar qo‘yilgan paytlarda ham sud vakillari va tegishli mutaxassislar bunday choralar ko‘rilmaydigan kasb egalari ro‘yxatiga kiritilib, ularning xizmat vazifalarini bajarish qobiliyatini cheklamaslik to‘g‘risida tavsiya etiladi.

4. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida “Inson huquqlari” fanini o‘qitish yuzasidan metodologik tavsiyalar va “Inson huquqlari” fanini ta’lim muassasalarida o‘qitish dasturi ishlab chiqildi (*dissertatsiyaga ilova qilinadi*). Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasining o‘quv jarayonida “Favqulodda holatda inson huquqlarini ta’minlash” maxsus o‘quv kursini joriy etish taklif qilinadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL No. DSs. 39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 FOR  
AWARDING SCIENTIFIC DEGREES AT THE NATIONAL CENTER OF  
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN FOR HUMAN RIGHTS**

---

**LAW ENFORCEMENT ACADEMY OF THE REPUBLIC OF  
UZBEKISTAN**

**ALIMOV GAIBULLA ALIMOVICH**

**THE LEGAL BASIS FOR ENSURING HUMAN RIGHTS  
AND FREEDOMS IN CASE OF EMERGENCY:  
INTERNATIONAL AND NATIONAL EXPERIENCE**

12.00.13 – Human Rights

**ABSTRACT**

**of the dissertation of the doctor of science (DSc) on legal sciences**

**Tashkent – 2025**

**The theme of the doctoral dissertation (DSc) was registered at the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2023.3.DSc/Yu262.**

The dissertation has been prepared at the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the web-site of the Scientific Council ([www.nhrc.uz](http://www.nhrc.uz)) and on the information-educational portal “ZiyoNET” ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Scientific advisor:**

**Tillabaev Mirzatillo Alisherovich**  
Doctor of Science in Law, Professor

**Official opponents:**

**Gafurov Askarjon Boisovich**  
Doctor of Science in Law, Associate Professor

**Turgunov Murodjon Tursunbaevich**  
Doctor of Science in Law, Associate Professor

**Toshev Bobokul Norkobilovich**  
Doctor of Science in Law, Professor

**Leading organization:**

**The Institute for the Re-training and Advanced Training of Legal Personnel under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan.**

The defense of the dissertation will be held on June, 13, 2025 at 15.00 at the meeting of the Scientific Council No. DSc.39/30.11.2020.Yu/S.128.01 for awarding scientific degrees the National Center of the Republic of Uzbekistan for Human Rights (Address: 100029, Tashkent city, Islam Karimov st. 15, Tel: (99871) 239-40-23; e - mail: [info@nhrc.uz](mailto:info@nhrc.uz)).

The doctoral dissertation is available at the Information-Resource Center of the National Center of the Republic of Uzbekistan for Human Rights (registered under No. 8), (Address: 100029, Tashkent city, Islam Karimov st. 15, Tel: (99871) 239-40-23).

The abstract of the dissertation was distributed on \_\_\_\_\_, \_\_\_\_, 2025.  
(Registry protocol No.\_\_\_\_ of \_\_\_\_\_, \_\_\_\_, 2025).

**I.T. Turgunov**

Acting Chairman of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Associate Professor

**U.S. Ochilov**

Secretary of the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Associate Professor

**A.A. Tulaganov**

Chairman of the Scientific Seminar under the Scientific Council for awarding scientific degrees, Doctor of Science in Law, Professor

## INTRODUCTION (annotation of doctoral dissertation (DSc))

**The actuality and relevance of the dissertation theme.** In the modern world, ensuring and implementing human rights and freedoms are among the most pressing and complex problems of our time. Globalization processes have not only heightened awareness of the value and inviolability of fundamental rights and freedoms but have also placed urgent emphasis on protecting them from various forms of unlawful infringement, threats, and natural disasters. According to the World Meteorological Organization, the number of natural disasters has increased fiftyfold over the past five years. Specifically, since 1970, more than 11,000 disasters have occurred, resulting in over 2 million deaths and causing approximately USD 3.64 trillion in economic losses. However, advancements in emergency preparedness and mitigation systems have led to a threefold reduction<sup>1</sup> in fatalities. At the same time, the development experiences of many countries demonstrate that the absolute and unconditional nature of human rights and freedoms sometimes does not align with the natural state and the legitimate interests of state development, allowing for the exercise of individual freedom within certain limits and providing opportunities for others to exercise their rights.

In today's unstable and risk-prone world, examining the concept of human rights particularly their assurance under exceptional circumstances such as emergencies or armed conflicts and exploring the grounds and limits of restricting specific categories of rights and freedoms, is of critical importance. The imposition of restrictions on human rights is addressed in key international legal instruments, such as the Universal Declaration of Human Rights, the International Covenant on Civil and Political Rights and the International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights. These documents confirm that the international community not only recognizes a defined set of rights but also holds the authority to monitor emergency measures undertaken by states. This highlights the necessity of ensuring effective international guarantees and mechanisms for human rights protection.

The "Uzbekistan-2030" Strategy, in its Goal 87, emphasizes the need to align the activities of law enforcement agencies with the protection of human interests, dignity, and rights. This principle becomes especially relevant as a safeguard against the abuse of power in restricting human rights and freedoms. In this regard, it is noted that in recent years, various regions around the world have faced growing armed conflicts, ecological and technogenic disasters, economic crises, "trade wars," and threats of terrorism and extremism. These complex circumstances demand an increased role for parliaments in ensuring peace, social development, and justice globally<sup>2</sup>.

The dissertation contributes to fulfilling the tasks outlined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan (2023), the Constitutional law on "Emergency Situations" (2021), the Law on "Protecting the Population and Territories from

---

<sup>1</sup> <https://wmo.int/ru/media/news/za-poslednie-50-letuvelichilos-chislo-svyazannykh-s-pogodoy-bedstviy-oni-prichinyayut-bolshe>.

<sup>2</sup> Speech by the President of the Republic of Uzbekistan at the 150th session of the Inter-Parliamentary Union. // <https://president.uz/uz/lists/view/8034>

Natural and Technogenic Emergency Situations” (2022), the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 11, 2023, on the “Uzbekistan – 2030” Strategy, as well as the National Strategy on Human Rights of the Republic of Uzbekistan<sup>1</sup> and other legislative acts, serve to implement issues related to ensuring human rights during emergency situations to a certain extent.

**The compliance of the research with the priority directions of scientific and technological development of the republic.** This dissertation was completed in accordance with the priority direction of the republic's science and technology development I. “Ways to form a system of innovative ideas and implement them in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an information society and a democratic state”.

**Review of foreign scientific research on theme of the dissertation<sup>2</sup>.** Significant academic research on the protection and realization of human rights during emergencies has been conducted by leading global institutions and public organizations. Notable contributors include – *United States*: Georgetown University, University of Maryland, Florida Institute of Technology, Emergency Management Institute, Stanford University's Center for International Security and Cooperation, and Harvard University's Belfer Center for Science and International Affairs; *Canada*: University of British Columbia; *Germany*: Bayerische Feuerwehrschnule (BFS); *Denmark*: Danish Institute for Human Rights; *China*: China Campus Network Consortium of leading higher education institutions.

For example, Georgetown University has studied human rights protection in counterterrorism and national security contexts, while Harvard’s Belfer Center has conducted strategic analyses of human rights in international relations and conflict scenarios. The University of Colorado Boulder's Natural Hazards Center has investigated rights protection in natural disasters such as earthquakes, floods, and hurricanes.

Among CIS countries, institutions such as Russia’s Academy of Civil Defense, Saint Petersburg University of Fire Safety, Kazakhstan’s Academy of Civil Defense, and the Academy of the Ministry of Emergency Situations of Uzbekistan have conducted research on guaranteeing rights and freedoms under emergency conditions, as well as defining the legal parameters and criteria for imposing restrictions.

Currently, authoritative international bodies including the UN Human Rights Council, the UN Committee on the Rights of the Child, the Committee on the Elimination of Racial Discrimination, the Human Rights Committee, the Council of Europe, the European Union and the OSCE are actively working to prevent abuse of power by state authorities during emergencies and to expand the list of rights that cannot be restricted under any circumstances. Judicial practices of the Inter-American and European Courts of Human Rights also serve as important sources of precedent in evaluating state conduct under emergency measures and issuing relevant decisions.

---

<sup>1</sup> Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No.6012 dated June 22, 2020, "On the Approval of the National Strategy of the Republic of Uzbekistan on Human Rights" // <https://lex.uz/ru/docs/-4872355>

<sup>2</sup> The overview of international scientific research on the topic of the dissertation is given in the list of used literature.

These international organizations and institutions have provided detailed analyses and policy recommendations regarding the theoretical and practical challenges of restricting certain rights in emergencies, as documented in their reports, research papers, and public statements.

**The Extent of the Study of the Research Problem.** In Uzbekistan, while no comprehensive studies have been conducted specifically on the restriction of human rights and freedoms during states of emergency, various aspects of this issue have been addressed in the works of scholars such as Academician A.Kh. Saidov, and researchers G.A. Abdumajidov, M.Kh. Rustambaev, A.B. Gafurov, M.A. Tillabaev, A.A. Tulaganov, I.T. Turgunov, M.T. Turgunov, B.N. Toshev, G.Y. Yuldasheva, A.R. Muminov, A.A. Matchonov<sup>1</sup>, and others.

Legal and organizational aspects of civil protection during emergencies in Uzbekistan have also been explored at the national level by scholars including S. Khusanova, N. Nazarova, and A. Tursunov.

Within the CIS region, constitutional and legal foundations for limiting rights and freedoms during emergencies have been studied by scholars such as T. Khabrieva, A. Abashidze, A. Kovler, B. Tuzmukhamedov, Y. Shelegov, A. Yusupov, M. Tkharkakho, O. Vinogradov, A. Kropacheva, O. Omarov, D. Ikramov, and Y. Kazimirskaya.

From a global legal perspective, numerous international scholars including R. Bernhardt, B. Wiser, F. Iacobucci, A. Cariola, A. Chayo, K. Eckstein, A. Lopez-Pina, R. Arnold, A. von Arnold, K. Meiner-Brockmann, T. Mouns, P. Lерche, G. Ress, M. Sachs, K. Hesse, V. Hoffling, B. Schlink, F.E. Schnapp, H. Stark, K. Stern, and M.Kh. Yakobe have thoroughly examined the problem of restricting rights as a form of rights protection, as well as the standards for applying such restrictions.

